

**Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasida
2024-yil yakuni (12 oyi) bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilinishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda - Inspeksiya)ning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilganligi to'g'risida umumiy axborot.

Transport nazorati inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l haritasi" tasdiqlangan.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy bo'limlarining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI tasdiqlangan.

Tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy bo'limlarining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli ishlar olib borilishi yil davomida ta'minlanib kelindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash borasida ochiq ma'lumotlar portali va inspeksiyaning rasmiy veb-sayti sahifasiga ma'lumotlar joylashtirib borildi.

Inspeksiyaning markaziy apparati hamda hududiy bo'limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ravishda tadbirlar amalga oshirib kelindi. Jumladan, **2024-yil 12 oyi** davomida markaziy apparatda **19 marotaba** seminar trening va yig'ilishlar o'tkazilgan bo'lsa, hududiy bo'limlar tomonidan **103 marotaba** seminarlar o'tkazilgan hamda veb sayt va boshqa elektron axborot vositalarida targ'ibot ishlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, Inspeksiyaning hududiy bo'limlari tomonidan **96 marotaba** og'zaki huquqiy targ'ibot (seminar)lar hamda **65 marotaba** inspektorlarga huquqiy bilim va ko'nikmalar berish bo'yicha yig'ilish seminar va treninglar tashkil qilingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bo'lgan **155 ta** ko'rgazmali targ'ibot materiallari tarqatilgan.

Hisobot davrda inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yilmadi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni ijrosini ta'minlash hamda inspeksiya tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishning ustuvor vazifalarini o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirish maqsadida Agentlik tomonidan ishlab chiqilib tavsiya etilgan, BMT TDning “O'zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish” loyihasi bilan birgalikda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, inspeksiyada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilingan.

Jumladan, Inspeksiyaning 2024-yil 26-apreldagi **230-sonli buyrug'i** bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati (1-ilova), korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti (2-ilova), manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom (3-ilova), aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti (4-ilova), xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma (5-ilova), kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma (6-ilova), ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (7-ilova), Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (8-ilova), korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom (9-ilova), xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti (10-ilova) tasdiqlangan.

Buyruq bilan barcha xodimlar tanishtirilgan va tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Inspeksiyaning barcha xodimlari uchun birdek amal qilishi belgilab qo'yilgan. Ushbu buyruq Inspeksiya markaziy apparati va barcha hududiy bo'limlarining xodimlariga yetkazilgan.

Shuningdek, Inspeksiyaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga inspeksiya ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur ichki idoraviy hujjatlar bilan imzo chekkan holda ta'riflashini, ularning qonun-qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash maqsadida yo'lga qo'yilgan.

Transport nazorati inspeksiya faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun “Yo'l haritasi” tasdiqlangan. Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiya markaziy apparati va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi tasdiqlangan.

III. Xavf-xatarlarni baholash¹

¹ Bo'lim faqat har yillik hisobot davrida to'ldiriladi. Mazkur bo'limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o'tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

Inspeksiya tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi bo'lib, inspeksiyaning 2024-yil 25-aprelda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlangan. Bunda barcha funktsiya va vazifalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash o'tkazilib, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilgan va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalari markaziy apparat va hududiy bo'linmalar bo'yicha jami **59 ta** bo'lib, shundan, **26 tasi o'rta** va **33 tasi past** deb baholangan.

Inspeksiya uchun o'rta bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish tegishli tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

2024-yil davomida (I-IV choraklarida) Inspeksiyadagi mavjud shtat birliklarida faoliyat yuritayotgan barcha (2024-yil 27-dekabr holatiga 338 nafar) boshqaruv xodimlari har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomilidan o'tgan. Jumladan, markaziy apparat 47 nafar va hududiy bo'limlarda 291 nafarni tashkil etadi. Shuningdek, 2024-yilning 1-choragida lavozimga qabul qilingan 20 nafar, 2-choragida 10 nafar, 3-choragida 11 nafar va 4-choragida 3 nafar xodim ishga qabul qilish jarayonida deklaratsiya to'ldirilgan. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning Inspeksiyadagi umumiy xodimlar soniga nisbati 100 foizni tashkil etadi. Hisobot davrida inspeksiya tizimida real manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalari Inspeksiyaning mehnat shartnomalariga hamda xo'jalik shartnomalariga kiritilgan, shu jumladan hisobot davrida **57 ta** shartnomalar to'gridan-to'g'ri ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son qarori asosida amalga oshirilgan. Yagona yetkazib beruvchilar bilan **21 ta** shartnomalar tuzilgan.

Bundan tashqari, Inspeksiyaning 2024-yil 1-yanvardan 27-dekabr kuni holatiga ko'ra xarid.uzex.uz va xt-xarid.uz platformalari orqali tuzilgan shartnomalar soni **241 tani** tashkil qiladi.

Barcha shartnomalar Transport nazorat inspeksiyasi boshlig'ining 2024-yil 23-avgustdagi "Transport nazorat inspeksiyasida"da davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida"gi **571-sonli** buyrug'iga asosan, belgilangan tartibda amalga oshirilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha doimiy tekshiruvlar o'tkazilgan. Inspeksiyaning kontragentlar bilan huquqiy munosabatga kirishishga ehtiyoj bo'lgan vaqtda **55 ta** kontragentlar tekshiruvdan o'tkazilgan. Tekshiruvlar natijasida ijobiy xulosa olgan kontragentlar bilan shartnomalar tuzilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Inspeksiya tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan tanlov komissiyasi tomonidan 2024-yilning 1-choragida lavozimga qabul qilingan **20 nafar**, 2-choragida **10 nafar**, 3-choragida **11 nafar** va 4-choragida **3 nafar** xodim ishga yangi qabul qilinayotganda **46 marotaba** tekshiruvlar o'tkazilgan. Hisobot davrida inspeksiyaga **23 nafar** (hududiy bo'limlar bilan birga) boshqaruv xodimi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamkorligida e'lon qilingan mustaqil, ochiq tanlov asosida ishga qabul qilindi. Nomzodlarning muqaddam ishlagan joylaridan ijobiy tavsifnomalar olindi. Shuningdek, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali inspeksiyaning shaxsiy kabinetida nomzodlarning ruhiy kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi, narkologiya bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi va sudlanmaganlik haqida ma'lumotlari tekshirilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Transport nazorati inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l haritasi" tasdiqlangan. Mazkur Yo'l xaritasiga muvofiq xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy bilimlari darajasini oshirish, korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan **12 soatlik** "Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish masalalari" o'quv kursida 2024-yil 20-30 may kunlari **128 nafar**, 10-20-iyun kunlari **20 nafar** boshqaruv xodimini malakasi oshirildi. Malaka oshirgan xodimlarga elektron sertifikatlar taqdim etildi. Yil davomida 348 nafardan iborat barcha xodimlarni mazkur kurslarda malaka oshirishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan Transport nazorati inspeksiyasi avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashuvlarini nazorat qiluvchi **167 nafar** inspektorlarni (**har oyda har bir viloyatdan 2 nafardan jami**

28 nafar xodim) malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilindi va maxsus sertifikatlar berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha suhbat-treningdan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga nisbati sakson yetti foizni tashkil etadi.

Inspeksiyaning xodimlar xonalariga korrupsiyaga qarshi axborot plakatlar yopishtirildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish skrinshvayterlar tayyorlanib ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yildi. Inspeksiyada bir oyda ikki marotaba o'tkazib kelinayotgan siyosiy-ma'rifat soatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha axborotlar berib borilgan. (Hisobot davrida **19 ta**)

2024-yilning 29-aprel va 11-dekabr kunlari Jamoatchilik kengashining yig'ilishi bo'lib o'tgan. Yig'ilishda fuqarolik jamiyati vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6247-son Farmoni yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborot berildi. (Hisobot davrida **2 ta**)

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Inspeksiya boshlig'ining 2024-yil 10-oktabrdagi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida" **709-sonli buyrug'i** tasdiqlandi. Ushbu buyruq bilan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi ishlab chiqishdi. (Vazirlar Mahkamasining 829-sonli qaroriga muvofiq).

Inspeksiyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkoni beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, ishonch telefoni (71) 202-05-01 (**515**) faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Inspeksiyaning rasmiy sayti (<https://uztn.uz/>), telegram kanali (<https://t.me/Uztransnazorat>), ijtimoiy tarmoqlarda (<https://www.facebook.com/uztnuz/>), (https://www.instagram.com/transport_nazorat_inspeksiyasi?igsh=YzljYTk1ODg3Zg==) o'z sahifalarini yo'lga qo'ygan.

Korrupsion holatlar haqida xabar berish uchun elektron pochta manzili: (antikorrupsiya@uztn.uz) hamda qayta aloqa boti ([@anticorruption_uztn_bot](https://t.me/anticorruption_uztn_bot)) tashkil qilingan.

Hisobot davrida inspeksiya xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali murojaat yoki xabarlar kelib tushmagan.

Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi aniqlanmagan. Xizmat tekshiruvi o'tkazilmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Markaziy apparat bo'limlari va hududiy bo'limlarda mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari o'tkazish bo'yicha bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, Inspeksiyaning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marta amalga oshirilishi bo'yicha belgilangan vazifalar bo'yicha **yil davomida besh marotaba amalga oshirilgan.**

Nazorat tadbirlari belgilangan tartibda har chorakda o'tkazib borilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi holatlari aniqlanmagan.

IX. Xulosalar

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, uning siyosati xodimlarga yetkazilgan, mazkur yo'nalishda xodimlar malakasini oshirish tizimi samarali tashkil etilgan. Inspeksiya tizimida markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurash choralarni kuchaytirish, shu yo'nalishda videoroliklar, plakatlar, tarqatma materiallar, xodimlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish muntazam yo'lga qo'yilgan.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejas

Keyingi 2025-yil davomida Inspeksiya tizimida markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha choralarni kuchaytirish, noan'anaviy tadbirlarni amalga oshirish, shu yo'nalishda videoroliklar, plakatlar, tarqatma materiallar, so'rovnomalar o'tkazib borish rejalashtirib olingan.

Inspeksiya boshlig'i

J.Karimov

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis
(korrupsiyaga qarshi kurashish yuklatilgan)

O'.Ochilov

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i

Sh.Ruzmetova

Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i

G'.Nurmatov